XALQ DEPUTATLARI NUROBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-3-020-7-99-K/24 Nurobod tumani

Nurobod tumanining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-5-025-7-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Samarqand viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01/10-38/3521-sonli, Nurobod tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2024-yil 16-noyabrdagi 32372-sonli, Nurobod tumani soliq inspeksiyasining 16-noyabrdagi 03/85-sonli xatlarini inobatga olib, xalq deputatlari Nurobod tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, uchinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-5-025-7-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Nurobod tumani mahalliy byudjetining 2025-yilgi daromadlari 115 219 916,0 ming.so‘m va xarajatlari esa 128 029 398,0 ming.so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 12 809 482,0 ming.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi, shuningdek Nurobod tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 1 117 000,0 ming.so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Nurobod tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda Nurobod tumani mahalliy byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun 1 736 752,0 ming.so‘m miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari

shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. 2025-yil uchun Nurobod tumanida mahallalar kesimida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar miqdori 3-ilovaga, 2025-yil uchun Nurobod tumanida mahallalar kesimida jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar miqdori 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari R.Ibragimov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Xudayberdiyev), tuman soliq inspeksiyasi (M.Erkinov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Nurobod tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Suyarov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari R.Ibragimov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



BERDIKULOV
SIROJIDDIN
VALIKULOVICH

Xalq deputatlari Nurobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-020-7-99-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Nurobod tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘m)

TR	Daromad turlari	Jami
	Jami daromadlar	**115 219 916**
1	Aylanmadan olinadigan soliq	5 321 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	48 472 800
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 151 000
4	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	9 384 000
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 217 000
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	9 606 716
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	10 558 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	12 291 000
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	14 352 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 736 400
11	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	130 000

Xalq deputatlari Nurobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-020-7-99-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Nurobod tumani mahalliy byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

(ming so‘m)

TR	Sohalar nomi	Mablag‘
	Jami xarajatlar	**128 029 398**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	41 516 599
	shundan:	
	“Mening maktabim”	*4 694 586*
2	Madaniyat bo‘limi	4 529 156
3	Yoshlar ishlari bo‘limi	4 923 467
4	Sport maktabi	7 648 354
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	2 399 094
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	5 067 329
7	Suv yetkazib berish xizmati	240 000
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 827 693
9	Hokimiyat	42 545 209
	shundan:	
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”	*55 125*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*28 994 028*
	“Mahalla byudjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	*1 414 000*
	Zaxira jamg‘armasi	*1 736 752*
10	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	993 989
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari	*241 660*
	Axborot-kutubxona markazi	*752 329*
11	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	15 338 508

Xalq deputatlari Nurobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-020-7-99-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yil uchun Nurood tumanida mahallalar kesimida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar miqdori

T/r	Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi	Koeffisiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)
1	Ag‘ron MFY	0,85	25 506 800,0
2	Oqsoy MFY	0,95	28 507 600,0
3	Olg‘a MFY	0,90	27 007 200,0
4	Oltinsoy MFY	1,09	32 708 720,0
5	Omandara MFY	0,90	27 007 200,0
6	Amir Temur MFY	1,78	53 414 240,0
7	Arabota MFY	0,85	25 506 800,0
8	Bashquduq MFY	0,96	28 807 680,0
9	Buloqboshi MFY	0,85	25 506 800,0
10	Bunyodkor MFY	0,85	25 506 800,0
11	Girdiqurg‘on MFY	0,85	25 506 800,0
12	Do‘stlik MFY	0,90	27 007 200,0
13	Jarquduq MFY	0,90	27 007 200,0
14	Jom MFY	0,90	27 007 200,0
15	Ittifoq MFY	0,90	27 007 200,0
16	Qilichli MFY	1,64	49 213 120,0
17	Qo‘rg‘oncha MFY	0,85	25 506 800,0
18	Lolazor MFY	0,85	25 506 800,0
19	Mash’al MFY	1,64	49 213 120,0
20	Mehnatkash MFY	0,95	28 507 600,0
21	Navbaxor MFY	0,85	25 506 800,0
22	Navro‘z MFY	1,78	53 414 240,0
23	Nurafshon MFY	0,85	25 506 800,0
24	Nurbuloq MFY	1,64	49 213 120,0
25	Nurdum MFY	0,85	25 506 800,0
26	Po‘latchi MFY	1,64	49 213 120,0
27	Sazag‘on MFY	1,64	49 213 120,0
28	Saroy MFY	1,64	49 213 120,0
29	Sarikul MFY	0,90	27 007 200,0
30	Sahoba MFY	0,84	25 206 720,0
31	Tegirmonboshi MFY	0,85	25 506 800,0
32	Tepaqul MFY	1,64	49 213 120,0

33	Ulus MFY	1,64	49 213 120,0
34	O‘rtabo‘z MFY	0,85	25 506 800,0
35	Xalqobod MFY	1,60	48 012 800,0
36	Chorvador MFY	0,85	25 506 800,0
37	Chortut MFY	0,90	27 007 200,0
38	Sharq Yulduzi MFY	1,78	53 414 240,0
39	Yuksalish MFY	1,60	48 012 800,0

**Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-5-025-7-0-K/24-sonli qaroriga asosan Nurobod tumani bo‘yicha yuridik shaxslarga qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun 1 gektarga bazaviy soliq stavkasi 30 008 000,0 so‘m belgilangan.*

Xalq deputatlari Nurobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-020-7-99-K/24 -son qaroriga
4-ilova

2025-yil uchun Nurobod tumanida mahallalar kesimida jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar miqdori

T/r	Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi	Koeffisiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)
1	Ag‘ron MFY	0,89	235,05
2	Oqsoy MFY	0,89	235,05
3	Olg‘a MFY	0,89	235,05
4	Oltinsoy MFY	1,14	301,07
5	Omandara MFY	0,89	235,05
6	Amir Temur MFY	1,27	335,41
7	Arabota MFY	0,89	235,05
8	Bashquduq MFY	1,14	301,07
9	Buloqboshi MFY	0,89	235,05
10	Bunyodkor MFY	0,89	235,05
11	Girdiqurg‘on MFY	0,89	235,05
12	Do‘stlik MFY	0,89	235,05
13	Jarquduq MFY	0,89	235,05
14	Jom MFY	0,89	235,05
15	Ittifoq MFY	0,89	235,05
16	Qilichli MFY	0,89	235,05
17	Qo‘rg‘oncha MFY	0,89	235,05
18	Lolazor MFY	0,89	235,05
19	Mash’al MFY	0,89	235,05
20	Mehnatkash MFY	0,89	235,05
21	Navbaxor MFY	0,89	235,05
22	Navro‘z MFY	1,27	335,41
23	Nurafshon MFY	0,89	235,05
24	Nurbuloq MFY	1,27	335,41
25	Nurdum MFY	0,89	235,05
26	Po‘latchi MFY	0,89	235,05
27	Sazag‘on MFY	0,89	235,05
28	Saroy MFY	0,89	235,05
29	Sarikul MFY	0,89	235,05
30	Sahoba MFY	0,89	235,05
31	Tegirmonboshi MFY	0,89	235,05
32	Tepaqul MFY	0,89	235,05

33	Ulus MFY	1,14	301,07
34	O‘rtabo‘z MFY	0,89	235,05
35	Xalqobod MFY	1,14	301,07
36	Chorvador MFY	0,89	235,05
37	Chortut MFY	0,89	235,05
38	Sharq Yulduzi MFY	1,27	335,41
39	Yuksalish MFY	1,14	301,07

**Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-5-025-7-0-K/24-sonli qaroriga asosan Nurobod tumani bo‘yicha 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasi 264,1 so‘m etib belgilangan.*